

XIX ASR – XX ASR BOSHLARIDAGI TADQIQOTLARDA XORAZM ETNOGRAFIK MEROSIGA MUNOSABAT MASALALARI

Matchanova Sanobar Muxamedjanovna

UrDU akademik litseyi tarix va huquq fani o'qituvchisi.

Mustaqil izlanuvchi

matchanovasanoobar@gmail.com

Tel: 93 748 65 34

<https://orcid.org/0009-0001-3099-8014>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr – XX asr boshlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Xorazm etnografik merosiga bildirilgan munosabat masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi davridagi harbiy-ma'muriy ekspeditsiyalar, sharqshunoslar va etnograf olimlar faoliyati doirasida Xorazm hududida to'plangan ma'lumotlar manbashunoslik nuqtai nazaridan baholanadi. Jumladan, Nikolay Muravyov, Arminius Vambery, Vasily Bartold kabi tadqiqotchilarning asarlarida Xorazm aholisining turmush tarzi, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari va moddiy madaniyatiga doir ma'lumotlar tahlil etiladi. Tadqiqotda mustamlakachilik diskursi, orientalizm yondashuvi hamda ilmiy-etnografik kuzatuv metodologiyasi o'zaro qiyosiy tarzda ko'rib chiqiladi. Natijada XIX–XX asr boshlaridagi ilmiy qarashlarda Xorazm etnografik merosi bir vaqtning o'zida ham ilmiy qiziqish ob'ekti, ham siyosiy-ideologik tahlil predmeti sifatida talqin qilingani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Xorazm, etnografik meros, XIX asr tadqiqotlari, Rossiya imperiyasi, orientalizm, mustamlakachilik diskursi, etnografik ekspeditsiya, manbashunoslik tahlil, madaniy antropologiya.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm hududi tarixini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davr Rossiya imperiyasining siyosiy-harbiy ekspansiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ilmiy tadqiqotlar ko'p hollarda geosiyosiy manfaatlar doirasida amalga oshirildi. Shu bilan birga, aynan shu davrda Xorazmning etnografik merosi — aholining turmush tarzi, urf-odatlar, diniy qarashlari, xo'jalik tizimi va ijtimoiy munosabatlari haqidagi ilmiy ma'lumotlar tizimli ravishda yozma manbalarda qayd etildi.

Rus imperiyasi davrida tashkil etilgan harbiy-ilmiy ekspeditsiyalar natijasida Xorazm haqidagi ilk etnografik tavsiflar shakllandi. Ayrim tadqiqotchilarning ishlarida hudud aholisi “ekzotik” va “an'anaviy jamiyat” sifatida tasvirlangan bo'lsa, boshqa manbalarda esa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ancha xolis ilmiy tahlil qilingan.

Mazkur masalaga munosabatni tahlil qilish etnografiya tarixshunosligi nuqtai nazaridan muhimdir. Chunki XIX–XX asr boshlarida yaratilgan manbalar bugungi

kunda ham Xorazm etnomadaniy tarixini o'rganishda asosiy ilmiy baza vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu tadqiqotda o'sha davr manbalariga tanqidiy-manbashunoslik yondashuv asosida baho berish, ulardagi mustamlakachilik ruhi va ilmiy ob'ektivlik darajasini aniqlash asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

XIX asr va XX asr boshlaridagi tadqiqotlarni biz ilk tasviriy ma'lumotlar, shu bilan birgalikda ilmiy etnografiyaning shakllanishi va dastlabki tahlillar davri deyishimiz mumkin. Bu davrda Xorazm vohasidagi diniy-mistik tabobat amaliyotlari maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida emas, balki sayohatchilar, harbiy amaldorlar va sharqshunoslar asarlarida umumiy etnografik ma'lumotlar tarkibida qayd etilgan. Ushbu manbalarda muqaddas joylar va muqaddas buyumlarning xalqning madaniy hayotidagi qatlami, shuningdek, tabiblar, duoxonlar, baxshilar, muqaddas suvlar, toshlar va dam solish amaliyotlari haqida qisqacha tavsiflar uchraydi. Ilmiy tahlil mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, mazkur ma'lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun dastlabki empirik baza vazifasini bajaradi. Jumladan, A.Vamberi, Mayor Blankennagel, M.I. Ivanin, O.Shkapskiy, Glado'shev i Muravin¹ning asarlarida Xiva xonligida duoxonlikning avj olgani va aholining yagona davolash usuliga aylangani haqida gapirilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasining me'moriy mukammalligi 1873 yili Xivada bo'lgan L. Kostenko²da katta taassurot qoldirgan. U Polvon ota masjidini "Xivadagi eng go'zal imorat" sifatida ta'riflab, uning moviy rangda tovlanayotgan gumbazi, ayvon sistemasi, xayriya maqsadida mo'ljallangan himoya ayvonlari haqida batafsil to'xtaladi, shuningdek, mayolika bezaklari, kufiy xatli parchalar va qadimgi inshootlarning umumiy holati haqida ilk tasviriy ma'lumotlarni beradi. Kostenko ta'kidlagan "masjid ichida kasallar va muhtojlar uchun alohida joylar"ning ta'rfi, ushbu inshootning ijtimoiy vazifasi me'moriy tuzilishi bilan uyg'un yaratilganini ko'rsatadi. Yanuarius (Yanus) MakGaxan (Januarius Aloysius MacGahan) — XIX asrda faoliyat ko'rsatgan mashhur amerika jurnalisti va harbiy muxbir bo'lib, u Markaziy Osiyo, jumladan Xiva xonligidagi voqealarni Evropaga mustaqil xorijiy manba orqali etkazgan birinchi jurnalistlardan biri hisoblanadi.

Nemis olimi K. Zalemanning³ ilmiy tadqiqotlarida ham Xorazm aholisining mifologik xarakterdagi marosimlarga alohida to'xtalgan. Tarixshunoslik nuqtai-nazaridan P.Pozdneeva⁴ ning tadqiqoti nihoyatda e'tiborga loyiq. Uning asarlarida

¹ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М. Восточная литература. 2003. — С. 160.;См; Замечания Майора Бланкеннагеля Впоследствии поездки его из Оренбурга в Хиву в 1793-94гг. изд. С объяснением В.В.Григорьевым. СПб. В типографии Морского Министерство. 1858; Шкапский О. Рассказ о Средней Азии.кн.1. М. 1900. — С. 5.; Шкапский О.О Как хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях. — М.,1900; Гладышев и Муравьин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 годах поручиком Гладышев и геодезистом Муравьиным. СПб. 1851. — С.21.

² Костенко Л. Город Хива в 1873 году // Туркестанский сборник (Т.С). — СПб., 1873. — Т. 82. — С. 323.

³ Залеман К.Г. Легенда про Хаким ота. -СПб.: Изд.имп.Акад.наук. .сер. 5, т.9. 1898 , -С.105-150

⁴ Позднев П. Дервиши в мусульманском мире. Глава 3-4-5. —Оренбург: Типография Б.Бреслина. 1886. —С.125-304

aynan Xorazm masalalasi ko'tarilmagan bo'lsada, darveshlikning O'rta Osiyoga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Darveshlarning mistik davolash jarayonlarida ishlatadigan idishlari va o'qiladigan duo-o'yatlari ham qisqa berib o'tilgan va shomonlik amaliyotlarining islomga moslashishi sifatida talqin qilinadi. V.M.Mixaylovskiy, Anuchin, N.N. Xaruzin⁵ va boshqa rus olimlari ham diniy-mistik tabobat bilan shug'ullanuvchi marosim mutaxassislari doirasida ular foydalanadigan moddiy buyumlar haqida to'xtalib o'tadilar va masalaga tanqidiy yondoshganlar.

Garchi XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tarixshunoslik materiallari etnografik tavsif usulida yozilgan bo'lsada, ushbu ishlarda qayd qilingan ma'lumotlar tadqiqot uchun muayyan ahamiyatga ega. Xususan, A.L. Kunning asarlarida Qo'hna Urganch minorasi va To'rabekxonim maqbarasiga oid aniq o'lchamlar, g'isht terish usuli, ko'k rangli mayolika va yulduzsimon mozaika kompozitsiyalarining idizlarini izlashga harakat qilingan. A. Karmo'kov va M. Ivaninning asarlarida⁶ esa XX asr boshlaridagi Xiva xonligi ziyoratgohlarining me'moriy qiyofasiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Mazlumxon Suluv va Shayx Husayn bobo maqbaralari haqidagi qaydlar ularning qabr tuzilishi, peshtoq shakli, tarhning simmetriyasi, ayvon va hovli tipidagi himoya devorlari, ziyorat va ruhiy shifo uchun mo'ljallangan konstruktsiyasi va jihozi tadqiqot uchun manba vazifasini o'taydi. M.Ivaninning Xivadagi avliyo P.Mahmud majmuasidagi maqbaralarning sirli koshinlar bilan bezalishi, dekoratsiyasi, geometrik va svastik tasvirlar haqidagi ma'lumotlar ham tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega.

D.Klevinning Xiva va Xorazm yodgorliklariga bag'ishlangan maqolalarida To'rabekxonim gumbazi, uning ornamental tuzilishi va geometrik mozaikalarning o'ziga xosligi haqida ilmiy tahlillar keltiradi. V.V. Bartold, D.D. Genri Lansdell⁷ P.S. Savelevlar madrasa va maqbaralarning bezaklaridagi geometrik naqshlar, husnixat va kosmologik ramzlarni qayd etgan. Biroq, bu bosqichda tadqiqotlar asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lib, belgilarning ma'naviy-ruhiy mohiyati chuqur ochilmagan. Jumladan, D.D. Genri Lansdellning asarida Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasining o'z davri uchun eng ko'zga ko'ringan binosi ekanligi va uning ko'k koshinlar bilan bezalganligi P.Maxmud maqbarasi va Ko'hna Urganchning minorasi, To'rabekxonim madrasasi, Najmiddin Kubro va Yusuf Hamadoniy qabr maqbaralari haqidagi ilmiy ma'lumotlar, kufiy yozuvlar, ko'k koshin va mayolikaning rangoviy xususiyatlari, g'ishtlarning geometrik shakl hosil qilib terilishi kabi xususan Xorazm me'morchilik maktabiga xos belgilar atroflicha bayon qilingan. Shu bilan

⁵ Михайловский, В.М. Шаманство (Сравнительно-этнографические очерки). – М. – 1892. – 134 с.; Харузин Н.Н. Очеркъ истории развития жилища у финновъ. с 6-ю таблицами рисунков. –М.: Высочайше утв. Т-во скоропечатни А.А. Левинсонъ. Петровка, д. Левинсонъ, 1895, -107 с.

⁶ Калмыков А. Хива //Т.С. – Ташкент: 1908. – Т.471. – С.152–159.; Иванин М. Хива и река Амударья // Т.С. – Спб., 1873. – Т.50. – С.72.

⁷ Henri Lansdell, D.D. Russian Central Asia. Kuldja, Bokhara, Khiva, and Merv. V.2. London. 1885. –Pg. 285–295/ (Pg. 776) 368

birgalikda inshootlar bezaklarining g'oyaviy asoslarini echishga harakat qilingan. Yuqoridagi mualliflar diniy-mistik ramzlarning tibbiy va marosim jihatlariga e'tibor qaratmaganlar.

Tavsifiy ma'lumotlarni to'plagan rus mualliflaridan biri A.Samoylovich⁸ turkman afsunlarini o'rganish bilan birgalikda Xiva xonligi aholisining ham marosimiy va shifobaxsh taomlarini ham o'rganar ekan, taomlar bilan bog'liq afsun va duolar, taomlanish bilan bog'liq mistik xarakterdagi harakatlarni ham kuzatadi. Tavsifiy xarakterdagi materiallardan yana biri Z.L.Amitin-Shapiroga tegishli bo'lib, unda Turkiston mahalliy ("Buxoro") yahudiylarining xalq tabobati aks etgan. Muallif Buxoro yahudiylari tabobatini o'rganar ekan, uning tarkibi diniy-mistik qarashlar va amaliyotlar bilan to'la ekanligini ta'kidlaydi. Qisqa muddatli kuzatuvlari asosida nafaqat yahudiylar, balki hududda yashovchi o'zbek, turkman va qozoqlar bu usullardan birdek foydalanishini aytib o'tadi.

Umuman olganda mazkur davr sayoxatchi va xarbiy mulozimlari, orientalistlari Markaziy Osiyo. Jumladan Xorazm aholisining etnografik xususiyatlari masalalarida noyob materiallarni to'plaganlar. Shu jumladan mazkur tadqiqotga oid moddiy va ma'naviy ashyolarni Britaniya muzeylari va RFA Sharqshunoslik qo'lyozmalari institutiga va turli xil muzeylarga to'plaganlar. "Turkiston albomi"⁹ shular jumlasidan.

⁸ Самойлович А. Туркменские заговоры // Живая старина. 1912. вып.1.-С117-124.; Самойлович А.Н. Название Хивинских кушаний. Рукопись. Санкт- Петербург ЦГА. им. Сатликова –Щедрин. Фонд. 671. дело.125. 99лист.

⁹ Туркестанский альбом. Часть этнографическая / Сост. А.Л. Кун. — 1872. — Тит. л., [2] с. текста, [90] отд. л. изобр..